



O'RTA OSIYODA TANGA PUL MUNOSABATLARI TARIXI

Xikmatullayev Davlatbek

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

tarix yo'nalishi 1-kurs 2.24-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola qadimgi O'rta Osiyoda tangalar zarb qilinishining tarixi va rivojlanishiga bag'ishlangan. Unda tangalar zarb etish texnologiyasi, ularning iqtisodiy hayotdagi roli va madaniy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bu tangalar orqali hududiy savdo-sotiq aloqalari, siyosiy mustaqillik jarayonlari va davlat hokimiyatining ramziy jihatlari tahlil qilinadi. Numizmatik topilmalar asosida qadimgi davlatlarning iqtisodiy tizimi va xalqaro aloqalaridagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, qadimgi tangalar, numizmatika, iqtisodiy tarix, savdo-sotiq, davlat ramzlari, zarb texnologiyasi, xalqaro aloqalar.

Kirish: Qadimgi O'rta Osiyo madaniyati va iqtisodiy hayotining muhim ko'rsatkichlaridan biri bu tangalar zarb qilinishidir. Tangalar faqatgina iqtisodiy muomala vositasi sifatida emas, balki davlat hokimiyatining ramziy ifodasi, siyosiy mustaqillikning timsoli va madaniy aloqalarning ko'zgusi sifatida ham xizmat qilgan. O'rta Osiyoda tangalar zarb qilinishi Iskandar Zulqarnayn yurishlaridan keyingi davrda keng rivojlanib, ko'plab mahalliy davlatlar o'ziga xos tangalar chiqarishni yo'lga qo'ygan. Mazkur hududda tangalar zarb etilishi faqat iqtisodiy tizimning rivojlanishini emas, balki xalqaro savdo-sotiq aloqalari va madaniy almashuvlarning yuqori darajada bo'lganini ham ko'rsatadi. Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm kabi davlatlar tangalarida aks etgan tasvirlar va yozuvlar nafaqat mahalliy an'analarning, balki yunon, fors va hind madaniyatlarining ta'sirini ham



aks ettiradi. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda tangalar zarb qilinishining tarixiy rivoji, ularning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, shuningdek, numizmatika sohasidagi so'nggi yutuqlar asosida tahlil qilinadi. Tangalar orqali bu hududning davlat tuzilmasi, savdo yo'llari va xalqaro aloqalari haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Qadimgi O'rta Osiyoda tangalar zarb qilishni o'rganishda antik tarixchilarning asarlari (Strabon, Gerodot), numizmatik topilmalar va arxeologik tadqiqotlar asosiy manba hisoblanadi. Zamonaviy olimlar (Bartold) ishlarida hududning iqtisodiy tarixi va tangalar zarb etish texnologiyasi keng o'rganilgan.

Muhokama va natijalar: Kishilik tarixida ko'p asrlar davomida iqtisodiy munosabatlar vositasi rolini bajargan tanga pulning o'rni bo'lakcha. Miloddan oldingi ming yillik boshlarida ilk bor O'rta yer dengizi qirg'oqlarida yaratilgan tanga yasash texnikasi Eron, Hindiston, Xitoyda, keyinchalik Markaziy Osiyoda ham tarqaldi. Qadimgi Turon — Turkiston, shu jumladan, bugungi O'zbekiston davlatchiligi tarixini yoritishda tanga pullarning o'ziga xos o'rni bor. Ko'plab arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, O'zbekiston — Markaziy Osiyo tarixida nafaqat ilk shaharsozlik madaniyati va davlatchilik an'analari vujudga kelgan hududlardan biri, balki mintaqadagi miloddan avvalgi ming yillikning IV-III asrlarida dastlabki mahalliy tanga pullar zarb qilina boshlangan mintaqadir. Tovar ayirboshlashning eng qulay vositasi bo'lmish tanga zarb qilish an'anasi Turonda ikki ming yillik o'tmishga ega. Turli qimmatbaho metallar — mis, kumush va oltindan tanga yasash ishlari ilk bor miloddan avvalgi III-II asrlarda Baqtriyada, keyinchalik Kushonlar saltanati (mil. I-III asrlar) davrida, milod boshlaridan So'g'd va Xorazmda, III-IV asrlarda esa Choch vohasida yo'lga qo'yiladi. Ilk o'rta asrlarda birin-ketin Farg'ona, Ustrushona, O'tror va Yettisuvdagi sulolalar o'z tangalarini chiqara boshlaydilar. Bu davr tangalarining aksariyati so'g'diy yozuvda, boshqalari qadimgi xorazm, boxtar, pahlaviy (o'rta fors) va qadimgi turk-run yozuvidadir. Tangalarni tarixiy manba sifatida o'rganishning ahamiyati shundaki, birinchidan, turonlik hukmdorlar ismi va unvonlarining



xitoy, yunon, arabfors va boshqa tillardagi yozma manbalarda uchrab, ushbu tillarga moslashtirib yuborilgan va asli qanday bo'lgani tushunarsiz bo'lib qolgan mahalliy shaklini tanga yozuvlariga tayanib tiklash imkoniyati bo'lsa, ikkinchidan, tangalardagi yozuv, tasvir va turli belgilar orqali o'sha davr madaniyati bo'yicha muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Ilk o'rta asrlarda mintqa xalqlari davlatchiligida yuz bergan tub o'zgarishlar pul munosabatlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, bu davrda kuchli saltanatlarga asos solgan eftaliylar (420-565), Turk xoqonligi (552-744) bilan bir vaqtda Choch, O'tror, Farg'ona, Ustrushona, So'g'd, Buxoro, To'xoriston, Xorazm, Marv singari vohalar hukmdorlari ham o'z tangalarini zarb qilgan. Asosan mis, qisman kumushdan yasalgan tangalarda ko'pincha ularning aynan qaysi hokimlikka tegishli ekanini bildiruvchi joy nomi, boshqaruvchisining ismi va unvoni bilan birga hokimiyat va davlatchilik an'analari aks ettiruvchi belgilar — tang'a, o'q-yoy, ilohiy timsollar, taxt tasvirlari bor. Turon tangalari bo'yicha XX-XXI asr boshlarigacha amalga oshirilgan izlanishlarda anchagina ilmiy yutuqlar qo'lga kiritilgan. Shu bilan birga, ko'plab tanga yozuvlari o'nlab yillar davomida o'qilmasdan qolgani yoki ularning qaysi hukmdorlikka tegishliligi masalasi yechilmasdan kelganini ham aytib o'tish kerak. Shuningdek, ayrim tangalar bo'yicha noto'g'ri talqinlar bildirilib, mamlakatimiz tarixining ayrim davrlariga nisbatan asossiz tushunchalar kelib chiqqanini ham e'tibordan qochirib bo'lmaydi. Ilk o'rta asrlar tangalarining tarixiy manba sifatida o'rganilishi davomida ko'plab yutuqlar qo'lga kiritilganiga qaramay, bir qator muammolar ham bor. Ayrim tadqiqotlarni istisno qilsak, bu soha dunyo, xususan, G'arb tarixshunosligida o'z o'rnini yetarlicha topgani yo'q. Mintaqamizning islomdan oldingi tarixi bo'yicha Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya va Fransiyada o'nlab yirik mutaxassislar yetishib chiqqaniga qaramay, ularning ishlarida tangashunoslik bo'yicha ilmiy yangiliklar o'z ifodasini deyarli topmagan. Holbuki, Turonning janubiy hududlari va unga tutash tarixiy o'lkalar — Shimoliy Afg'oniston, Xuroson va Shimoliy Hindistonda ilk o'rta asrlarda zarb qilingan boxtariy,



pahlaviy (oʻrta fors) va qadimgi hindcha yozuvli xioniy (xun), eftaliy va ashinaliylar sulolasiga tegishli yuzlab tangalar topilgan.¹

XX asr ilk choragida ularni oʻrganishga keng koʻlamda kirishilishi natijasida yuzlab maqola va oʻnlab asarlar yozilgan. Biroq mintaqaning soʻgʻdiy, xorazmiy va qadimgi turk-run yozuvli tangalari oʻrganilishi borasida bunday deyish qiyin. Toʻgʻri, mustaqillikdan oldin bunday tangalarni toʻgʻridan-toʻgʻri oʻrganish imkoniyati boʻlmagan, shu bois ham dunyo tangashunoslari bu masalada eʼtiborni janubiy hududlarga qaratgan boʻlishlari mumkin. Ammo bugungi kunga kelib ahvol oʻzgardi, chet ellik tadqiqotchilarning yurtimizga kelib, ilmiy adabiyotlar va muzeylardagi tangalar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri tanishish barobarida arxeologiya qazishmalarida qatnashishlari uchun yoʻl ochildi. Mustaqillik yillarida oʻzbek tangashunosligi oʻzining yangi bosqichiga qadam qoʻydi. Xususan, mazkur mavzuda 1990-yillardan bugungi kungacha yuzlab maqola va asarlar chop etilishi bunga dalil boʻla oladi.

“Numizmatika Sentralnoy Azii” jurnali nashr qilinib kelinayotgani ham diqqatga sazovor. Shuningdek, Oʻzbekiston Milliy banki toʻplamida saqlanayotgan tangalar fihrisi 4 jildda oʻzbek, rus va ingliz tillarida nashr qilindi. Yaqin yillargacha aksariyat tadqiqotlarda VIVIII asrlarga taalluqli tangalarning bir boʻlagini “Qadimgi turk tangalari” guruhi tashkil qilishiga urgʻu berilsa-da, ularning qaysi hukmdor yoki sulolalarga tegishliligi masalasi hal qilinmagan. Hatto “hoqonlik tanga zarb qildirganmi yoki yoʻqmi” mazmunidagi fikr deyarli oʻrtaga tashlanmagan.² Koʻpchilik tadqiqotchilarda ilk turkiy tangalar Turgash hoqonligi tomonidan chiqarilgan, degan qarash shakllangan. Qariyb yigirma yillik izlanishlar natijasida Turk hoqonligining mamlakatimiz va jahon tangashunosligi xabardor boʻlmagan bir necha oʻnlab turdagi tangalari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi. Bugungi kunda

¹ uz.uz/uz/news/markaziy-osiyoda-tanga-pullar-muomalasi-yolga-qoyilgan-ilk-hudud

² uz.uz/uz/news/markaziy-osiyoda-tanga-pullar-muomalasi-yolga-qoyilgan-ilk-hudud



asosan Toshkent, Fargʻona, Surxondaryo viloyatlaridagi islomdan oldingi davrlarga tegishli shaharlar qoldiqlaridan topilayotgan yuzlab tangalar sinchiklab oʻrganilganda, ularning hoqon, xotun, jabgʻu, jabgʻu hoqon, tegin, tutuq, tarxon kabi oʻnlab turkiy unvonlar bilan zarb etilgani aniqlandi. Ushbu tangalarning sezilarli qismi toʻgʻridan-toʻgʻri hoqonlik, bir qismi esa hoqonlik bilan aloqador sulolalar tomonidan zarb etilgan. Jumladan, VI–VIII asrlarda Choch (Toshkent) vohasida zarb etilgan mis tangalarning kattagina qismi gʻarbiy ashinaliy hoqonlarga tegishli boʻlib, old tomonida qadimgi turklarga xos qiyofadagi hukmdor tasviri va teskari tomonida soʻgʻdiy yozuvda jabgʻu, jabgʻu hoqon kabi unvon va vasflar, hukmdorlarning Tardu hoqon, Yelbi Ishbara jabgʻu hoqon, Ilohiy Tun jabgʻu hoqon singari ismlari va hoqonlikning etnosiyosiy nomi sifatida Turk hoqon iborasi uchrashi ularning aynan hoqonlikka tegishli tangalar boʻlganidan darak beradi. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerak, Turk xoqon unvoni bilan zarb etilgan tangalar oʻziga xos jihatlari bilan boshqalaridan birmuncha ajralib turadi. Birinchidan, ular Chochning koʻpincha 2 sm. oʻlchamli boʻlgan boshqa tangalaridan yirik ekani hukmdor tasvirining ustomonlik bilan chizilgani, salmogʻi ham ancha ogʻirligi (4 gr.) bilan diqqatni tortadi. Ikkinchi tomondan, barcha turkiy ellarni birlashtiruvchi nom boʻlgan turk etnonimi — elat nomi yozma yodgorliklar orasida ilk bor tangalarda uchraydi. Bungacha ushbu atama aynan shu koʻrinishda milodiy VIII asrning ilk oʻn yilliklariga tegishli Oʻrxun-Enasoy bitiktoshlari va VII asr oʻrtalarida yaratilgan xitoy yilnomalarida uchrab, uning koʻplab tillardagi yozma manbalarda keng oʻrin ola boshlashi oʻrta asrlarga toʻgʻri kelar edi. Demak, aytib oʻtilgan Choch tangasining VI asrning soʻnggi oʻn yilliklariga toʻgʻri kelishi esa turk etnonimi qadimiyatini yana bir-ikki asrga uzaytiradi. Yaqin yillarda aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan tangalar qatoriga VI-VIII asrlarda Samarqandda zarb qildirilgan Turon hukmdori unvonli tangalarni ham kiritish mumkin. Oʻng tomonida qadimgi turklarga xos uzun sochli hukmdor tasviri, teskari tomonida esa islomdan oldingi Samarqand hukmdorlariga tegishli tangʻa va yozuv oʻrin olgan ushbu tangalarning ilk nusxalari allaqachon topilib, ilm ahliga tanitilgan boʻlsa-da, ulardagi soʻgʻdiy yozuv turlicha oʻqilgan va bu tangalarning hoqonlik



bilan bog‘liqligi to‘g‘risida bir og‘iz so‘z aytilmagan edi. Ushbu tanga yozuvlarida Turon atamasi uchrashi yurtimiz nomining o‘sha chog‘lardayoq Turon — Turkiston deb atalganini yana bir bor tasdiqlamoqda.³

Endilikda “Turon va Turkiston atamaları o‘zaro bog‘liq emas”, deb jar solib kelgan ayrim xorijlik izlanuvchilarning o‘y-xayollari chippakka chiqdi, deya olamiz. Demak, bundan ming yil oldin buyuk ota-bobolarimiz Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Yusuf Xos Hojib yozib qoldirgan Turon — turklar yurti, Mazduron asli Marzi Turon, turk o‘lkalarining chegarasi demakdir” mazmunidagi ma‘lumotlar ushbu tangalar orqali o‘z tasdig‘ini top moqda. O‘zbekiston numizmatikasida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan yana biri mustaqillik yillariga to‘g‘ri kelib, qariyb bir asrdan beri yozuvlari to‘liq o‘qilmasdan, qaysi sulolaga oidligi aniqlanmay kelayotgan Choch tangalaridan sezilarli bir qismining Choch teginlari sulolasi (605-750-y.y.) tomonidan zarb qilinganining aniqlanishi bo‘ldi. Ushbu tangalarda o‘ng tomonida qadimgi turklarga xos uzun sochli, dumaloq yuzli, biroz qisq ko‘zli hukmdor tasviri, teskari tomonida sulolaviy tamg‘a va uning tegrasida “Choch hukmdori teginning puli” jumlası o‘rin olgan. Shu tariqa Xitoy yilnomalarida Shi-go van Dele (Choch davlati hukmdori tegin) shaklida uchrab, 605-750-yillar orasida vohani boshqargan sulola nomi Choch teginlari bo‘lgani va ular o‘z tangalarini zarb qilgani ayon bo‘ldi. Tangashunosligimizda yutuqlar bilan birga qator muammolar ham bor. Birinchidan, bu sohada izlanishlar olib boruvchi yosh mutaxassislar ancha kamchilikni tashkil etsa, ikkinchi tomondan, jahon tangashunoslarining bu sohaga jiddiy e‘tibor bermasligidir. Misol uchun, bugungi kunda yuzlab nusxalari topilayotgan xorazm tangalari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar deyarli yo‘q. Shuningdek, osori-atıqa to‘plovchilar tomonidan turli yo‘llar bilan yig‘ilayotgan tangalarning ko‘pi chet ellik to‘plovchilar qo‘liga borib tushayotgani ularni tariximizning qimmatli va zarur manbasi sifatida o‘rganish imkoniyatini

³ A. Sagdullayev “O‘zbekiston tarixi” I -qism Toshkent 2019



qiyinlashtiryapti. Tangalardan o‘rin olgan har bir yozuv, tasvir, belgi va boshqalar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy turmushi — tarixiy voqeliklar bilan chambarchas bog‘liq.⁴

Yangi tangalar topilishi va ulardagi yozuvning to‘laqonli o‘qib chiqilishi esa shu paytgacha qorong‘u bo‘lib qolayotgan masala va mavzularni yoritishga xizmat qilishi kerak. Biroq mamlakatimiz o‘tmishi bilan shug‘ullanayotgan izlanuvchilarning ko‘pchiligi tangashunoslar tomonidan qo‘lga kiritilayotgan ilmiy yangiliklardan yetarlicha xabardor emas yoki ulardan manba sifatida foydalanishga unchalik oshiqmaydi. Bu holat ilk o‘rta asrlar tarixi, xususan, eftaliy va ashinaliyar tarixiga doir, shuningdek, Choch, Farg‘ona, So‘g‘d, To‘xoriston va shunga o‘xshash vohalar hukmdorliklari tarixi bo‘yicha izlanishlar olib borayotgan ko‘pchilik tadqiqotchilarning ishlarida ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, ayrim ilmiy nashrlarda bir vaqtlar yanglish o‘qilib, noto‘g‘ri talqin qilingan tangashunoslik ma’lumotlaridan foydalanish bilan cheklanish, ular bo‘yicha yaqin yillarda bildirilgan fikrlarni inobatga olmaslik, “obro‘li” mutaxassislarning qarashlariga bog‘lanib qolish kabi holatlar davom etayotgani milliy tangashunoslik maktabining muammo va kamchiliklari sirasiga kiradi.

Xulosa Qilib aytganda Qadimgi O‘rta Osiyoda tangalar zarb qilinishi bu hududning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib

1- Tangalar faqat savdo-sotiq vositasi bo‘lib qolmay, balki davlat hokimiyatining ramzi, madaniy o‘zaro ta’sirlarning timsoli va xalqaro aloqalarning muhim dalili sifatida xizmat qilgan.

⁴ Abdulatip Sarimsokov O‘rta Osiyo Numizmatekasi “Iste’dod ziyo press” nashriyoti Namangan 2023.



- 2- O'rta Osiyo tangalarida mahalliy an'analar yunon, fors va hind madaniyati bilan uyg'unlashgan.
- 3- Bu esa mintaqaning qadimgi davrlardagi madaniy va iqtisodiy globallashuv markazlaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi.
- 4- Kompleks yondashuvlar yordamida tangalar zarb qilishning texnologik, iqtisodiy va madaniy ahamiyati chuqurroq o'rganiladi, bu esa kelajakdagi izlanishlar uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. uz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-da-tanga-pullar-muomalasi-yolga-qoyilgan-ilk-hudud
2. Bartold, V.V. *O'rta Osiyo tarixi*.
3. A. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" I -qism Toshkent 2019
4. Abdulatip Sarimsokov O'rta Osiyo Numizmatekasi "Iste'dod ziyo press" nashriyoti Namangan 2023.
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.



9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.